

BOSHLANG'ICH SINFLARDA "TABIATSHUNOSLIK" DARSLARINI TASHKIL ETISHDA SAMARALI METODLAR

Elmuratova Dilrabo Muhammadovna

Guliston davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lim metodikasi v.b.professori

P.f.f.d (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiatshunoslik fanidan samarali ta'lim berishning metodik jihatlari atroflicha tahlil qilinadi. Tabiatshunoslik fanining o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirishdagi ahamiyati, darslarni qiziqarli va esda qolarli tashkil etish usullari yoritilgan. Maqola boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari uchun qimmatli metodik tavsiyalar hamda ilg'or tajribalarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, maqolada boshlang'ich sinfda tabiatshunoslikni o'qitishda innovatsion texnologiyalar va ilg'or metodlarni qo'llash bo'yicha tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: tabiatshunoslik, samarali metodlar, innovatsion texnologiyalar, ekskursiya, tajriba, interaktiv o'yinlar, o'quvchi, o'qituvchi o'simliklar, hayvonot dunyosi.

Аннотация: В данной статье представлен всесторонний анализ методологических аспектов эффективного преподавания естественных наук учащимся начальной школы. Подчеркивается важность естественных наук в формировании мировоззрения учащихся, а также методы организации уроков в интересной и запоминающейся форме. Статья содержит ценные методические рекомендации и лучшие практики для учителей начальной школы, методистов и студентов педагогических вузов. В статье также приводятся рекомендации по использованию инновационных технологий и передовых методов в преподавании естественных наук в начальной школе.

Ключевые слова: естественные науки, эффективные методы, инновационные технологии, экскурсия, эксперимент, интерактивные игры, ученик, учитель, растения, животный мир.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the methodological aspects of effective teaching of natural science to primary school students. The importance of natural science in shaping the worldview of students, methods for organizing lessons in an interesting and memorable way are highlighted. The article contains valuable methodological recommendations and best practices for primary school teachers, methodologists and students of pedagogical universities. The article also provides recommendations on the use of innovative technologies and advanced

methods in teaching natural science in primary school.

Keywords: natural science, effective methods, innovative technologies, excursion, experiment, interactive games, student, teacher, plants, animal world.

Tabiat odamning paydo bo'lgunicha ham odam ishtiroki bilan mavjud borliq hisoblanadi mikro makro mega dunyolar jonsiz va jonli narsalar bor tormanada tabiat fanlari o'rganadigan obyekt tabiat odamga jamiyatga bog'liq bo'lmagan qonuniyatga buvisinadi odam tabiatning bir qismi bo'lib hisoblanadi odam tabiat qonunlarni o'zgartira olmaydi faqat qonunlardan foydalanib tabiat elementlarni qismlarini o'zlashtirishi mumkin tabiat tushunchasi insoniyat jamiyati yashashi tabiiy sharoitlarning majmui sifatida ham qaraladi.

Zamonaviy ta'lim jarayoni ilg'or pedagogik yondashuv va innovatsion texnologiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ayniqsa, boshlang'ich sinfda tabiatshunoslik fanini o'qitishda bu texnologiyalar o'quvchilarning qiziqishini oshirish, ularni faol fikrlashga undash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Maqsad – o'quvchilarda atrof-muhitga bo'lgan ongli munosabat, ekologik madaniyat va ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdir. Tabiatshunoslik fani o'quvchilarga dunyo atrofida tabiiy jarayonlar va hodisalarni tushunishga yordam beradigan, ularning ekologik tafakkurini rivojlantiradigan fan hisoblanadi. Bugungi kunda, ilm-fan va texnologiyaning jadal rivojlanishi, tabiatshunoslik fanini o'qitish metodlarini qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Ushbu maqolada boshlang'ich sinfda tabiatshunoslik fanini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan dars mashg'ulotlarida foydalanish metodikasining ahamiyati va samarali metodlarni qo'llash masalalari ko'rib chiqiladi.

Tabiat atamasi keng ma'nada fizik material olamni bildiradi kundalik turmushda tabiat so'zi ostida odam ta'siri ostida ko'p bo'lmagan atrof-muhit va undagi qayoq nazarda tutiladi birinchi holda tabiatni umuman fan deb olsak ikkinchi holda bo'lsa tabiatshunoslik fani o'rganadi.

Tabiat bu odamlarni qurshab olgan atrof-muhit ya'ni yoshil olam hisoblanadi. Odamning hayotda tabiatning biosferaning uyg'un sharoitiga bog'liq bo'lib hisoblanadi bu sharoit salbiy tomonga o'zgartirilsa odamning normal yashashga ham tulga tushishi mumkin shu sababli ham bir qancha ekologik muammolar paydo bo'ladi ilmiy texnik yutuqlaridan noto'g'ri haydalanish biosferaning buzilishiga olib keladi va atrof muhitga ham tabiatga zarar etadi bundan bir qancha ekologik muammolar kelib chiqadi.

Shu sababli ham boshlang'ich sinf o'quvchilarga atrof-muhitni himoya qilishni umuman asrashni va tabiiy boyliklardan oqilona darajada foydalanishni o'rgatish lozim hisoblanadi. Asosan boshlang'ich sinflarda shunoslik darslarining asosiy maqsadi o'quvchilarni tabiatni kuzatishga o'rgatish ulardan mehnat ko'nikmalarini va tabiatda ongli munosabatini shakllantirishda iborat bo'ladi ana shu muhim tala talablarini

bajarish avbob tabiati haqidaki tasavvur va tushunchalarni shakllantirishda boshlanadi.

Maktab dasturi talablari asosida darslar samaradorligini oshirish avvalo o'quvchilarning mustaqil kuzatishlarini to'g'ri tashkil qilishdir o'quvchilarda u yoki bu tushunchani shakllantirishda narsalar to'g'risida aniq tasavvurlar hosil qilish organizgan materialni atrofmuhit bilan bog'lash hissiy idrok muhim ahamiyatga ega ya'ni tabiatshunoslik fanlarni o'rganish jarayonida olgan bilimlarni asosda real borliq bilan ongli ravishda munosabat o'rnatishlari shuning uchun fanga qiziqtirishning turli yo'llarini qo'llash o'quvchi holatlari vositalarida olaman real tabiatni umumlashtirish bir briga bog'lab tushuntirish lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatshunoslikdan o'rgatilgan narsalarni real hayotda qo'llab bilishlarni va va amaliyotda o'sha o'rgangan narsalarni o'rgangan narsalarni qo'llab bilishidan iborat hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari real hayotdan olingan misollar va faoliyatlar orqali o'rganishga moyil.

Shu sababli, darslar:

Faoliyatga yo'naltirilgan;

Tajribaviy;

Interaktiv va vizual tarzda o'tkazilishi zarur.

Innovatsion texnologiyalar yordamida:

Darsni jonlantirish;

Mavzuni real hayotga bog'lash;

Mustaqil fikrlashni rivojlantirish;

Har bir o'quvchining faolligini ta'minlash mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari vizual va amaliy faoliyat orqali tezroq o'rganadilar. Innovatsion texnologiyalar (video, animatsiya, simulyatsiyalar) ularning tabiiy bilishga bo'lgan qiziqishini jonlantiradi. Tabiatshunoslik abstrakt emas, balki hayotiy va kuzatiladigan fan bo'lgani uchun uni faqat kitob asosida emas, balki interaktiv vositalar orqali o'rgatish zarur.

Masalan, virtual ekskursiyalar, eksperiment simulyatorlari, QR-kodli tajribalar shular jumlasidandir. Innovatsion yondashuvlar (loyihaviy metod, muammoli o'qitish) orqali o'quvchi passiv eshituvchi emas, balki faol tadqiqotchi sifatida shakllanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'yin muhim motivatsiya manbai hisoblanadi.

Innovatsion o'yin texnologiyalari (gamifikatsiya, krossvord, viktorina, interaktiv testlar) darsni yanada jozibador qiladi. Tabiatshunoslik ko'plab fanlar bilan (matematika, texnologiya, axborot texnologiyalari) bog'liq. Innovatsion texnologiyalar bu integratsiyani osonlashtiradi, masalan: IT bilan bog'langan loyihalar, STEAM yondashuvi.

Innovatsion ta'lim texnologiyalari turlari. Boshlang'ich sinflarda qo'llanishi mumkin bo'lgan asosiy innovatsion texnologiyalar quyidagilardan iborat:

a) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) Multimedia taqdimotlari, interaktiv slaydlar, animatsiyalar mavzuni vizual tarzda tushuntirishda juda samarali. Virtual laboratoriyalar orqali oddiy tajribalarni onlayn bajarish imkoniyati yaratiladi. Veb-resurslar (masalan: YouTube videodarslari, interaktiv o'yinlar) mavzuni mustahkamlashga xizmat qiladi.

b) Loyihaviy o'qitish texnologiyasi O'quvchilar kichik guruhlarda tabiatga oid miniloyihalar tayyorlaydi (masalan: "Mening bog'im", "Tabiatda kuz fasli"). Bu ularni izlanishga, jamoada ishlashga, ijodiy yondashishga o'rgatadi.

c) Problema asosida o'qitish "Qanday qilib suvni tejash mumkin?", "Tabiat ifloslanishining oqibatlari qanday?" kabi savollar asosida muammo qo'yiladi va o'quvchilar uni hal qilish uchun fikr yuritadilar.

d) O'yin texnologiyasi Interaktiv o'yinlar (jumladan, "Krossvord", "Kim chaqqon?", "Top va ayt"), gamifikatsiya elementlari bolalarni darsga jalb etadi va rag'batlantiradi.

e) Klasterlar va aqliy hujum texnologiyasi Yangi mavzuni o'rganishda o'quvchilar mustaqil fikrlarni xaritada (klaster) joylashtiradi yoki guruhda erkin fikrlash orqali muammoga yechim izlaydi.

Tabiatshunoslik fani boshlang'ich sinf o'quvchilariga atrof-muhitni, tabiiy jarayonlarni va ekologik muammolarni tushuntirishda asosiy fanlardan biridir. Bu fan o'quvchilarga tabiat bilan do'stona munosabatda bo'lishni, uni asrash va himoya qilishni o'rgatadi. Tabiatshunoslik darslari orqali o'quvchilar hayotga, tabiatga nisbatan qiziqish uyg'otadi va shuningdek, ilmiy tafakkur rivojlanadi. Shuningdek, boshlang'ich ta'limda tabiatshunoslikni o'qitishda psixologik yondashuvlar ham muhimdir. O'quvchilarning yoshiga mos metodlar, materiallar va metodik yondashuvlar tanlanishi kerak.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz joizki, boshlang'ich sinflarda asosan tabiatshunoslik fanining maqsadi va uning yo'nalishlarini o'rgatish juda muhim hisoblanadi chunki tabiatshunoslik fani orqali o'quvchilarga tabiat atrof-muhitni asrash uning himoya qilish tabiiy boyliklarimizni yerosti yo'l yer usti boyliklarimizni o'rgatish va tabiatdan foydalanish o'simliklarga va hayvonot dunyosiga zarar yetkazmay o'tkazmaslikni o'rgatish lozim. Bunda asosan o'qituvchilarning o'rnini juda katta hisoblanadi chunki tabiiyshunoslik fani orqali o'qituvchilar o'quvchilarga tabiatdagi hodisalar haqida tushunchalarni shakllantiradilar va bilim hamda beradilar usha bilim va ko'nmalarni o'quvchilar amalda sinab ko'rishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Asosan o'quvchilarga boshlang'ich sinfdan ekologik muammolar atrof-muhitni asrashni hayvonot dunyosiga o'simlik dunyosiga zarar yetkazmaslikni o'rgatish o'rgatish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki bunday narsalarni o'rgatsak ular o'sha narsalarga rioya qiladilar va ekologik muammolar kelib chiqishi kamayib boshlaydi.

Boshlang'ich sinfda tabiatshunoslik fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish bu fanni jonlantiradi, o'quvchini dars markaziga olib chiqadi. Bu metodika orqali o'quvchilar nafaqat bilim oladi, balki hayotda foydali bo'lgan ko'nikmalarni ham egallaydi. O'qituvchidan esa doimiy yangilanish, texnologik savodxonlik va ijodiy yondashuv talab etiladi.

Ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodik yondashuvlar samarali qo'llanilganda, o'quvchilar tabiatni chuqurroq anglashadi va uning muhofazasi bo'yicha mas'uliyatni his qilishadi. Shu bilan birga, o'qituvchilarning malakasi va pedagogik mahorati ham samarali ta'lim uchun asosiy omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdujabborova, N. (2020). Boshlang'ich ta'limda tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
2. Davlatov, D. (2018). Boshlang'ich ta'limda interaktiv metodlarni qo'llash. Toshkent: Sharq.
3. Xudoyberganova, M. (2019). Tabiatshunoslikni o'qitishda innovatsion yondashuvlar. Ta'lim va ilm: nazariya va amaliyot, 2(34), 75-81.
4. Yusupov, S. (2021). O'qitishda zamonaviy texnologiyalar va metodlar. Toshkent: Fan
5. X.M. Pulatova, D. M. Sultonova, Z.N. Mamarajabova "Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi" Toshkent - 2014.
6. M.I.Nuriddinov "Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi " Toshkent - 2005.
7. A. Bahramov, Sh. Sharipov, M. Nabiyeva " Tabiatshunoslik" Toshkent - 2020.